

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY, TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 005.7:001.895(575.1)

ISMAILOV ALLAYOR RASHIDOVICH

**KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONLARIGA INNOVATSION
USULLARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – “Menejment” ixtisosligi

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi: Sindarov Sherzod
Egamberdiyevich iqtisodiyot fanlari
doktori, professor**

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I bob. KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONLARIGA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	18
1.1-§. Korporativ boshqaruvda innovatsion usullar tushunchalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.....	18
1.2-§. Korporativ boshqaruv jarayonlarida innovatsiyalarning o‘rni va ahamiyati.....	37
1.3-§. Innovatsion boshqaruv metodologiyasining evolyutsiyasi: jahon tajribasi.....	50
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	60
II bob. KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONLARIGA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	62
2.1-§. Korporativ boshqaruv jarayonlariga innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy modellari.....	62
2.2-§. Aksiyadorlik jamiyatlariga innovatsion usullarni joriy etishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlari	85
2.3-§. Leadership 4.0 metodologiyasiga asoslangan innovatsion usullarni joriy etish.....	97
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	108
III bob. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONLARIGA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISH HOLATI TAHLILI.....	110
3.1-§. O‘zbekiston Respublikasi korporativ boshqaruv tizimlari va ularda innovatsion usullarni joriy etish holati tahlili.....	110
3.2-§. “Issiqlik elektr stansiyalari” AJning korporativ boshqaruv tizimida innovatsion usullardan foydalanish holati va imkoniyatlari tahlili.....	127
3.3-§. “Issiqlik elektr stansiyalari” AJning korporativ boshqaruv tizimiga “Leadership 4.0” metodologiyasini joriy etish imkoniyatlarini aniqlash.....	140
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	166
IV bob. KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONLARIGA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISH ASOSIDA IJTIMOIIY VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	168
4.1-§. Korporativ boshqaruv jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etishda manfaatdor tomonlarning rolini oshirish mexanizmini ishlab chiqish.....	168
4.2-§. O‘zbekiston korporativ boshqaruv tizimida ESGga asoslangan innovatsion usullarni joriy etish samaradorligi.....	189
4.3-§ O‘zbekiston korporativ boshqaruv tizimida innovatsion usullarni joriy etish asosida istiqbolda rivojlanishini ta’minlash.....	207
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa	224
XULOSA.....	227
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	231
ILOVALAR.....	242

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kapitalni obyektiv birlashtirish yo‘li bilan rivojlangan korporativ tuzilmalar iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror qiymat yaratishni ta‘minlashga yordam beruvchi muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganiladi. Korporativ boshqaruvning samarali va barqaror bo‘lishi uchun innovatsion usullarning joriy etilishi yanada muhim ahamiyat kasb etadi. “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, 2019-yildan beri ijtimoiy va ekologik muammolarga bag‘ishlangan aksiyadorlarning takliflari soni ikki barobar oshib, 2023-yilda Equilar 500 kompaniyalarda 312 ta shunday taklif qayd etilgan. Korporativ boshqaruvda yuqori reytinglarda turuvchi mazkur kompaniyalar boshqaruviga sun‘iy intellekt (AI), kiberxavfsizlik, inson kapitalini boshqarish va iqlim nazorati tashabbuslaridagi innovatsiyalarni kiritish boshqaruv kengashlarining e‘tibor markaziga aylangan”¹.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va mutaxassislar tomonidan sanoat tarmoqlari, xususan, energitika sohasidagi jamiyatlarda korporativ boshqaruv jarayonlariga innovatsion usullarni joriy etish metodologiyasini takomillashtirish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, energitika sohasidagi aksiyadorlik jamiyatining samarali faoliyatini ta‘minlash, korporativ boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish tizimlarini, zamonaviy boshqaruv usullarini, elektr energiyasi ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash uchun strategik innovatsiyalar tizimini joriy qilish, ekologik va ijtimoiy javobgarlik strategiyalarini ishlab chiqish, energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhitga ta‘sirni kamaytirish, innovatsion texnologiyalar va boshqaruvni takomillashtirish uchun kreativ va mutaxassis kadrlarni tayyorlash yo‘nalishlarida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu boisdan, korporativ boshqaruvni zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodologiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlaridan keng foydalanish korxona va tashkilotlarning strategik ustunligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda.

¹ Corporate Governance Outlook 2024 An Equilar Publication. <https://www.dfinsolutions.com/>

Korporativ boshqaruv tizimida innovatsion usullarni joriy etishning metodologik asoslarini o'rganish, ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish, ilg'or xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqot faoliyatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalani chuqur o'rganish nafaqat korporativ boshqaruv nazariyasini boyitadi, balki milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish va ularning global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuv jarayonini jadallashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Korporativ boshqaruv jarayonlariga innovatsion usullarni joriy etish, o'z navbatida, boshqaruv samaradorligini oshirish, muttasil rivojlanish va raqobatdoshlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu ishlab chiqarish va biznes jarayonlarini yangilash, yangi biznes-modellarini qabul qilish, texnologiyalarni integratsiya qilish va muassasalarning ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi PQ-4249-sonli "O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi qaroriga asosan "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati qayta tashkil etilishi bilan "Issiqlik elektr stansiyalari" aksiyadorlik jamiyati ta'sis etilgan. Korporativ boshqaruv tizimlarida innovatsiyalarni joriy etish ko'plab tashkilotlar va kompaniyalar uchun strategik muhim vazifalardan hisoblanadi. Innovatsion boshqaruv usullarini kompaniyalarning samarali faoliyat yuritishi, qarorlar qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, shuningdek, yangi bozorlarga kirib borishga asos yaratib beradi. Aksiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyatini ta'minlash uchun korporativ boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish tizimlarini joriy qilish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, strategik innovatsiyalar tizimini joriy qilish, ekologik va ijtimoiy javobgarlik strategiyalarini ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalar va boshqaruvni takomillashtirishni talab etadi. Mazkur holatlar raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojlanishi bilan korporativ boshqaruvda innovatsion usullarni joriy etishning yangi yo'nalishlari va